

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11097862>

УДК 378.17

PEDAGOGIK JARAYONLARNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH STRATEGIYALARI

Raximov Ilhomjon Abdullayevich

p.f.n. Namangan VPYMO'MM direktori, O'zbekiston Respublikasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kundagi ta'limdi boshqarish jarayonida inson omili o'rni, unga bo'lgan talab va takliflar, yangi bilim va ko'nikmalarni egallashi hamda uzlusiz malaka oshirishi to 'g'risida fitkrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Qobiliyatlar, boshqarish, bilim, malakasi, investitsiyalar, global axborot, strategiya, taraqqiyot

УДК 378.17

СТРАТЕГИИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И УПРАВЛЕНИЯ ПЕДАГОГИЧЕСКИМИ ПРОЦЕССАМИ

Рахимов Ильхомжон Абдуллаевич,

к.п.н., Директор НЦОПНМ Наманганской области, Республика Узбекистан

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается роль человеческого фактора в современном процессе управления образованием, требования и предложения к нему, приобретение новых знаний и навыков, непрерывное профессиональное развитие.

Ключевые слова: возможности, управление, знания, навыки, инвестиции, глобальная информация, стратегия, развитие.

UDC378.17

STRATEGIES FOR IMPROVING PEDAGOGICAL PROCESSES ORGANIZATION AND MANAGEMENT PROCESSES

Rakhimov Ilhomjon Abdullayevich

Ph.D.Namangan region national center for Training Pedagogues in New methods director, Republic of Uzbekistan

ANNOTATION

This article discusses the role of human factor in the management of education today, the demands and suggestions for it, as well as the acquisition of new knowledge and skills and continuous improvement of competencies.

Keywords: abilities, management, knowledge, skills, investments, global information, strategy, development.

KIRISH.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021-yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonida “Mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligi darajasini va innovatsion jihatdan taraqqiy etganini belgilovchi asosiy omil sifatida inson kapitalini rivojlantirish - strategiyaning bosh maqsadidir”, deb belgilab berildi.

Inson va uning qobiliyatlari, bilim, malakasi har qanday jamiyat farovonligi va davlat iqtisodiy taraqqiyotining asosiy omiliga aylangan bugungi kunda O‘zbekistonda inson kapitali, shubhasiz, ijtimoiy iqtisodiy siyosatning ustuvor yo‘nalishi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

Ta’lim sohasini yanada isloh qilish, ta’lim sifati va samaradorligini ta’minlash bo‘yicha bildirilgan konstruktiv fikrlar e’tirofga molik. Zero, rivojlangan davlatlarning taraqqiyot tajribasi shuni ko‘rsatadiki, qaerda ta’limga, ilm-fanga yaxshi sharoit yaratilgan bo‘lsa, o‘sha yerda har tomonlama yetuk va vatanparvar kadrlar yetishib chiqqan.

Uzluksiz ta’limda o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarish asosida bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy-ijtimoiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda ta’lim tizimini kreativ yondashuv asosida o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarish mexanizmlarini va ularni amaliyotga joriy etishning innovatsion tizimini yanada takomillashtirishni taqozo etmoqda. Shu jihatdan ta’lim tizimida o‘quv-tarbiya jarayonini kreativ yondashuv asosida boshqarishning innovatsion texnologiyalarini yaratish, yangi bilimlarni yaratuvchi zamonaviy pedagogik jarayonlar asosida raqobatbardosh mutaxassis kadrlarlarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytirish alohida ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI:

Adabiyotlarda boshqaruvning ma’nosи bo‘yicha uch xil yo‘nalishda tushunchalar mavjud. Birinchisiga ko‘ra, boshqaruv – faoliyatdir. Masalan, o‘z vaqtida boshqaruv fanining rivojlanishiga salmoqli hissa qo‘shgan, boshqaruv nazariyasi asoschilaridan biri fransuz olimi A.Fayol boshqarishni kelajakni ko‘ruvchi; tashkilotni idora qiluvchi;

faoliyatni tashkillashtiruvchi; faoliyat turlarini muvofiqlashtiruvchi; qaror va buyruqlar ijrosini nazorat qiluvchi kuchli qurol deb ataydi [65, 8-b.].

M.Sharifxo‘jaev, Yo.Abdullaevlarning fikricha, boshqaruv, bu – tanlov, qaror qabul qilish va uning bajarilishini nazorat qilish jarayonidir. Qator tadqiqotlarda boshqaruv insonlarning xatti-harakatini tartibga keltirish bilan bog‘liq faoliyat sifatida izohlanadi. B.C.Lazarev, G.X.Popov, M.M.Potashnik, A.Fayollarning fikriga ko‘ra boshqaruv bu faoliyat demakdir. Bunday yondashish ta’lim jarayonini unda ishtirok etuvchi shaxslarga bog‘liq bo‘limgan holda o‘rganishda asqotadi. L.B.Itelson, A.A.Orlovlar nuqtai nazariga ko‘ra boshqaruv bir tizimning ikkinchisiga ko‘rsatgan ta’sirini aks ettiradi. Bunda boshqaruv sub’ektning boshqaruv ob’ektiga ko‘rsatadigan maqsadga yo‘naltirilgan va ob’ektning o‘zgarishiga olib keladigan ta’siri sifatida qaraladi.

Ta’kidlash joizki, olimlar tomonidan ta’lim tizimini boshqarish modellarini ishlab chiqishda qaysidir yondashuvlar alohida qo‘llanilmasdan, ularning turli kombinatsiyalari ishlatiladi, chunki mazkur yondashuvlarning har biri ta’lim tizimidagi jarayonlar mohiyatini tushunib yetishda alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ularning muayyan bir jihatlarini yoritishga yordam beradi.

TADQIQOTMETODOLOGIYASI.

Ta’limni yaxlit tizim sifatida tasavvur etish hamda uning faoliyati eng maqbul parametrlarini belgilash, shu bilan birga har bir ta’lim muassasasining faoliyat yuritish jarayoni tizimli yondashuv yordamida aholining yuqori standartlarga javob beruvchi ta’limga bo‘lgan ehtiyoji, uni qondirishning muqobil imkoniyatlari, tashkilotda yuqori malakali mutaxassislarning mavjudligi kabi va boshqa turli omillar ta’sir ko‘rsatuvchi dinamik tarzda rivojlanadigan yagona tizim sifatida ifodalanishi .

TAHLILLAR VA NATIJALAR.

Mamlakatimiz ta’lim tizimini boshqarishda ko‘p qo‘llaniladigan yondashuvlardan yana biri – dasturli-maqsadli boshqaruvdir. Maqsadlar, odatda, berilgan vaziyatni istalganidan farqlovchi bir qator muammolar hal etilgach, boshqaruv tizimi muayyan vaqtidan keyin berilgan vaziyatdan o‘tib borishi lozim bo‘lgan istalgan vaziyatni aks ettiradi. Ya’ni, maqsadni qo‘yish bosqichidayoq keljakning umumlashgan modeli vujudga keladi. Ushbu bosqich yechimning muqobil variantlarini ko‘rib chiqish va ohirgi variantini tanlash bilan yakun topadi. Qaror qabul qilingandan so‘ng dasturlarni ishlab chiqish bosqichi boshlanadi. Ushbu bosqichda strategik maqsadlar kichik maqsadlarga bo‘linadi. Har bir bosqichda vazifalar va ularni hal qilishning ustuvor yo‘nalishlari ajratiladi, shuningdek ular resurslar (moddiy, mehnat, moliyaviy, inson omili) bilan muvofiqlashtiriladi. Bunda har bir bosqichning bajarilishi asosiy natija, hajm va muddat bo‘yicha aniq belgilanadi. Boshqaruv tizimida

maqsadga samarali erishishning asosiy shartlaridan biri maqsadni belgilash talablariga rioya qilish: maqsadlar oldindan belgilangan va aniq shakllantirilgan bo‘lishi; bajaruvchilar tomonidan qabul qilingan va ularga tushunarli bo‘lishi; maqsadlar tahlil qilingan va bajarilish muddati belgilangan, shuningdek, bajaruvchilarning harakati motivlashtirilgan bo‘lishi; vertikal va gorizontal bo‘yicha kelishilgan turli xil topshiriqlar yo‘nalishida taqsimlanishida maqsadlar birligining saqlanishi zarur. Maqsadlar va kichik maqsadlar kelishilgan va darajalarga ajratilgandan keyin dastur, odatda, barcha ijrochilar uchun bajarilishi shart hisoblangan hujjat maqomiga ega bo‘ladi. Ammo uni amalga oshirish jarayonida, boshqaruв tizimida yoki tashqi muhitda (ilgari hisobga olinmagan) o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Bunday o‘zgarishlar dasturni yoki uning ayrim bosqichlarini amalga oshirishda jiddiy qiyinchiliklarni tug‘dirishi mumkin. Shu bois dastur va uning har bir bosqichi bajarilishini doimo to‘liq nazorat qilish lozim. Nazorat natijalariga ko‘ra tahlil o‘tkazilib, dasturdan chetga chiqishlar yuz berganda ularning sabablari aniqlanadi, so‘ngra dasturga tuzatish kiritish yoki kamchiliklarni bartaraf etishga doir choralar ko‘riladi.

Mamlakatimizda barcha darajalarda dasturiy-maqsadli boshqaruв bo‘yicha muayyan tajriba to‘plangan. Yuqorida keltirilgan yondashuvlar ta’lim sohasida samarali boshqaruв faoliyatini amalga oshirish uchun nazariy asosni yaratadilar. Ta’lim majmularini boshqarish asosida ularning tuzilishi va faoliyat ko‘rsatishini tushunish imkoniyatini beruvchi tizimli yondashish yotadi. Qolgan yondashuvlar tizim doirasida unda kechuvchi jarayonlarni maqbullashtirish, uni tashkil etuvchi elementlarning o‘zaro eng yaxshi ta’sirini ta’minalash imkoniyatini beradi. Tizimli yondashuv va dasturiy-maqsadli boshqaruв menejment metodologiyasining fundamental qoidasi sifatida ta’limni boshqarish qonuniyatları, tamoyillari, vazifalari va usullari bilan uзвiy bog‘liq bo‘ladi. Ta’limni boshqarish qonuniyatları boshqaruв jarayonida turli elementlar va hodisalarning ob’ektiv ravishda mavjud bo‘lgan, takrorlanuvchi o‘zaro aloqalarini aks ettiradi. Tadqiqotlarda ta’limni boshqarish qonuniyatları umumiy va xususiy tavsifda bo‘lishi ta’kidlanadi. Boshqaruvning umumiy va xususiy qonuniyatları boshqaruvning umumiy qonuniyatları, boshqaruvning xususiy qonuniyatları, ustuvor samaradorlik va ongli rejali boshqarish qonuniyati, boshqaruв funksiyalarining o‘zgarishi qonuniyati, boshqaradigan va boshqariladigan tizimlarning boshqarish ob’ekti va sub’ektining o‘zaro munosabati qonuniyati, boshqaruв bosqichlari sonining maqbullashtirilishi, boshqaruvda mehnat taqsimoti va kooperatsiya jarayonlarini kuchaytirish qonuniyati, boshqaruв funksiyalarining jamlanishi (boshqaruв xodimlari sonining ko‘payib borishi) qonuniyati, nazoratning keng tarqalishi qonuniyati, umumiy qonuniyatlar

boshqaruvning barcha tizimlariga xos bo'lsa, xususiylari ayrim ta'lim muassasalariga nisbatan amal qiladi.

Boshqarish jarayonlarini takomillashtirish strategiyalari qonuniyatlarini ta'limni boshqarish tamoyillarini shakllantirishda to'liq hisobga olinadi. Ta'limni boshqarish tamoyillari, bu – boshqaruv tizimi, tuzilmasi, boshqaruvni tashkil etishning asosiy talablarini belgilab beruvchi qoidalardir. Boshqaruv tamoyillari ham qonuniyatlar singari umumiy va xususiy larga bo'linadi. Ta'limni boshqarishning umumiy tamoyillari: aniq maqsadga yo'naltirilganlik; ta'limni rejali boshqarish; rag'batlantirish; pog'onaviylik. Ta'limni boshqarishning umumiy tamoyillari universal tabiatga ega bo'lib, boshqaruvning barcha sohalariga ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruv qonuniyatlarini va tamoyillari boshqarish funksiyalari bilan uzviy bog'liqdir. Ta'limni boshqarish funksiyalari, bu – ular boshqaradigan kichik tizim boshqaruv ob'ektiga ta'sir ko'rsatishida yordam beradigan faoliyat turidir. Boshqaruv funksiyalari umumiy va xususiy funksiyalarga bo'linadi. Menejmentga tatbiqan rejorashtirish, tashkil etish, motivlashtirish, nazorat kabi umumiy funksiyalar ajratib ko'rsatiladi. Boshqaruvning umumiy qonuniyatlarini, tamoyillari va funksiyalaridan kelib chiqqan holda ta'lim sifati va ta'lim muassasasini boshqarishga metodologik yondashuvlar vujudga keltiriladi. Ta'limni boshqarish metodlari, bu – boshqaruv sub'ektining muayyan maqsadlarga erishish uchun boshqarilayotgan ob'yektga ta'sir ko'rsatish metodlaridir. Ta'limni boshqarish metodlari xilma-xil (boshqaruvning iqtisodiy metodlari, tashkiliy-boshqaruv metodlari va boshqalar), ammo ularning xodimlarga (umuman ta'lim muassasasi va alohida har bir xodimga) ta'siri motivatsiya vositasida qaror topadi.

Ta'lim jaryonlarini rivojlantirish bilan birgalikda xozirgi kun talablari oldida turgan dolzarb masala – kelgusidagi kasb egalarini, shu jumladan, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlash, yosh avlodni ma'naviy tarbiyalash, intellektual jihatdan rivojlantirishda samaradorlikka erishishdir. Zero, faqat barkamol shaxsgina o'zining intelektual, ma'naviy imkoniyatlarini to'laqonli namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu ma'noda mamlakatimizda innovatsion jarayonlarni qiyosiy-tahliliy o'rghanish, amaliy tajribalarini tanqidiy mushohada qilish asosida umumlashtirish, bo'lajak mutaxassislarning innovatsion faoliyatini to'g'ri tashkil qilish, uning istiqbol strategiyasini aniqlash imkonini beradi.

XULOSALAR.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, boshqarish jarayonlarini takomillashtirish strategik rejorashtirish jarayonlari samaradorligi ko'p jihatdan strategik rejalarning bir necha muqobil variantlarini ishlab chiqish hamda strategik maqsadga va muassasaning imkoniyatlariga ko'proq mos keladigan variantni tanlab olish bilan bir qatorda, strategiyalarni tanlab olish jarayonlarida barcha subyektlarning

ishtirokining ta'minlanishiga ko'p jihatdan bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, pedagogik tizimning har bir komponentining strategik maqsadi va imkoniyatlari inobatga olingan, shuningdek, pedagogik tizimni tashkil etuvchi har bir ta'lim, mustaqil ta'lim-tarbiya va o'zini-o'zi tarbiya jarayonlari subyektlarining funksional vazifalarini hamkorlikda amalga oshirilishini nazarda tutuvchi funksional, diversifikatsiyalashgan, mujassamlashtirilgan va maxsus strategiyalarni ham mazmunmohiyatan, yo'naliishiga ko'ra, yaxlit pedagogik tizim faoliyatida belgilangan strategik maqsadlarga ko'ra takomillashtirilishi zarur.

ADABIYOTLAR / REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi "O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5847-sonli Farmoni.<https://lex.uz/>
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
- 3.S.T.Turg'unov,L.A.Maqsudova,H.M.Tojiboyeva,G.M.Nazirova,
M.A.Umaraliyeva Pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirish texnologiyalari. Toshkent – 2014
4. Abdullayeva SHaxzoda Abdullayevna Askarov Abror Davlatmirzayevich Umumiyy pedagogika. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta mahsus ta'lim vazirligining 2019 yil 2 noyabrdagi "1023" sonli buyrug'iga asosan nashrqa tavsiya etildi (Guvochnoma № 1023-060)